

# AYRIM HAYVON NOMLARINING KELIB CHIQISH ETIMOLOGIYASI HAMDA MENTAL XUSUSIYATLARI

## ЭТИМОЛОГИЯ И МЕНТАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ ИМЕН ЖИВОТНЫХ

### ETYMOLOGY AND MENTAL CHARACTERISTICS OF CERTAIN ANIMAL NAMES

O.N.Anorqulova<sup>1</sup>

D.Abduvohidova<sup>2</sup>

1.2- O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hayvon nomlarining kelib chiqish etimologiyasi, ular bilan bog'liq bo'lgan hodisalar haqida mulohazalar keltiriladi. Hayvon nomlarining kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-nazariy qarashlar Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" da keltirilgan ma'lumotlar asosida dalillandi.

**Kalit so'zlar:** zoonim, etimologiya, nomlash, lingvomadaniyat, badiiy, diniy-ma'rifiy manbalar.

**Аннотация:** В этой статье будут рассмотрены этимология происхождения названий животных, а также связанные с ними явления. Научно-теоретические взгляды на происхождение названий животных Доказано на основе данных, приведенных в "этимологическом словаре узбекского языка" Ш.Рахматуллаева.

**Ключевые слова:** зооним, этимология, наименование, лингвокультурные, художественные, религиозно-просветительские источники.

**Abstract:** This article will consider the etymology of the origin of animal names, as well as related phenomena. Scientific and theoretical views on the origin of animal names are proved on the basis of the data provided in the "etymological dictionary of the Uzbek language" Sh.Rakhmatullayeva.

**Keywords:** zoonym, etymology, naming, linguistics, artistic, religious-educational resources.

### Kirish

Olam yaralibdiki, Yer yuzida odamlar bilan hayvonlar birgalikda yashab keladilar. Hayvonlarning insonlarga bo'lgan sadoqatini, vafodorligini ko'plab holatlarda ko'rishimiz mumkin. Biz xalq og'zaki ijodini hayvon obrazlarisiz tasavvur qila olmaymiz. Har bir xalqning madaniy xususiyatlariga nazar tashlansa, ularning o'ziga xos muqaddas va qadrlil sanalgan hayvonlari mavjudligiga guvoh bo'ladi. Buni mifologik afsonalar, totemistik va animistik qarashlar ham tasdiqlaydi. Xitoylar uchun ilon, ajdar, hindlar uchun sigir, fil, turklar uchun bo'ri, ot kabi hayvonlarning ahamiyatli ekanligi bu jihatdan xarakterlidir.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Azal-azaldan bizning xalqimiz otni muqaddas jonzod sifatida qadrlab keladi. Dostonlarimizda, xususan, "Ravshan" dostonida Jiyronqush, G'irko'k, "Alpomish" dostonida Boychibor, "Go'ro'g'li" dostonida G'irot tasvirlari keltirib o'tilgan. Bunda tashqari, Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasida ham otning o'z egasiga qanchalik vafodorlik ko'rsatgan holatini ko'rishimiz mumkin. Endi ot so'zining etimologiyasiga nazar tashlasak, OT - yirik ish - ulov hayvoni. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu so'z at tarzida talaffuz qilingan. Mahmud Koshg'ariy bu

Filologiya fakulteti  
O'zbek tili va  
adabiyoti kafedrasida  
katta o'qituvchisi  
O'zbekiston-  
Finlandiya  
pedagogika instituti,  
Samarqand,  
O'zbekiston

[Anorqulova@list.ru](mailto:Anorqulova@list.ru)

D.Abduvohidova<sup>2</sup>

Filologiya fakulteti  
o'zbek tili va  
adabiyoti yo'nalishi  
2-bosqich talabasi

O'zbekiston-  
Finlandiya  
pedagogika instituti,  
Samarqand,  
O'zbekiston

soʻzni “qattiq talaffuz qilinadigan alif” bilan ifodalanadi, deb alohida taʼkidlaydi. Oʻzbek tilida a unlisi o unlisiga almashgan: at> ot.<sup>1</sup>

"Ravshan" dostonida Jiyrongush shunday tasvirlanadi: Toʻrt oyogʻi teng tushgan, biqini yoziq keng tushgan, qarchigʻayni havosi tekkan.

Yoki Gʻirkoʻk ot shunday tasvirlanadi: Ot boradi arillab, Otgan oʻqday parillab, Ot alqimi- tong shamol, Mis karnayday zarillab, Suvsiz choʻlda Gʻirkoʻk ot, Borayotir karillab.

"Alpomish" dostonida esa Boychiborni turli qiynoqlarga solsalar ham egasiga qanchalik vafodorligini koʻrish mumkin: Boychiborni oʻrtaga oldi qalmoqlar, Har tarafdin unga arqon solidi, Boychiborni endi yiqib oladi. Boychiborni shunday tortib boyladi, Oyogʻidan oʻrab, kerib tayladi. Ahmoq qalmoq otga zulm qiladi, Tuyogʻiga gulmixlarni uradi, Urgan gulmix yalpoq tizga keladi. Chinqirib kishnaydi boylovli Chibor, Siyosatdan zarb koʻrsatdi qalmoqlar.

Xullas, ot oʻzbek xalqi mentalitetida vafodor, magʻrur, sevimli hayvon sifatida qaraladigan hayvon turidir.

Diniy manbalar xabar berishicha, “Jannatga kiradigan oʻn nafar hayvonlardan biri - bu As' hobi kahfning vafodor itidir” ( “Al - Jome al – Kabir” dan).

Badiiy adabiyotda ham aynan hayvonlarni tarannum etuvchi asarlar koʻp uchraydi. Oʻzbek adabiyotida Said Ahmadning “Qorakoʻz majnun” asarida Saodat ayaga oʻzining farzanlaridan ham mehribon, vafodor, sadoqatli it obrazi gavdalanitirilgan. Egasi kasalxonada yotganida koʻkragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan ham u edi. IT - qoʻriqlash uchun, ov qilish uchun saqlanadigan uy hayvoni.<sup>2</sup> Xalqimizda it hayvoni vafodorlik, sadoqat, shuningdek, gʻirromlik, sotqinlik maʼnolarini ham anglatishi mumkin. Shu sababli ham xalq tilida “It hurar karvon oʻtar” , “Itning boshi mistaboqdadir”, “Otning bolasi – ot, itning bolasi - it” kabi maqollar isteʼmoli hamon saqlanib kelmoqda. Mazkur atama qadimgi turkiy tilda iyt shaklida aytilgan (Baʼzi oʻzbek shevalarida hozir ham aytiladi) boʻlib, oʻsha davrdanoq y unlisi talaffuz qilinmay qolgan, shuning hisobiga i unlisi choʻziq talaffuz qilingan, keyinchalik bu choʻziqlik ham yoʻqolgan: Iyt > I: t > It. Iyt oti aslida “Nariga suruvchi”, “Nariga qochiruvchi” maʼnosini bildirgan boʻlib, qadimgi turkiy tilda “Nariga suril ma' nosini anglatgan iyt feʼli ham mavjud boʻlgan. <sup>3</sup>

### Tahlil va natijalar

Qoʻy hayvoni aynan musulmon xalqlari, xususan, oʻzbeklar uchun qadimdan sevimli sanaladi. Ushbu hayvonning yuvoshligi, beozorligi ayrim insonlarning feʼl-atvoriga ham qiyoslanadi. Shu bois xalq orasida “Qoʻyday yuvosh”, “Qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan” kabi iboralar yuradi, qolaversa insonlar oʻgil farzandlarini “qoʻzichogʻim” deb ham erkalatishadi.

<sup>1</sup> Shavkat Rahmatullayevning "Oʻzbek tilining etimologik lugʻati" (Turkiy soʻzlar) 1- jild. Toshkent "Universitet" 2000-yil .258 - bet.

<sup>2</sup> Shavkat Rahmatullayev. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. (Turkiy soʻzlar) 1- jild. – Toshkent: Universiteti, 2000-yil. 126- bet

<sup>3</sup> Shavkat Rahmatullayev. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. (Turkiy soʻzlar) 1- jild. – Toshkent: Universiteti, 2000- yil .583- bet.

Qadim zamonlardan buyon qo'y qurbonlik hayvoni sifatida qaraladi. Qurbonlik qilish marosimi Alloh tomonidan Ibrohim halilullohning o'z o'g'li - Ismoil alayhissalomni qurbonlik keltirish ishorati kelishi bilan boshlangan. Ibrohim halilulloh ishoratdan so'ng o'g'lining oldiga borib: "O'g'ilginam, men tushimda seni qurbonlik qilayotgan emishman. Bunga nima deysan?"-deydi. Ismoil alayhissalom o'ta ziyrak va yuksak aql, zehn egasi edi, u otasining maqsadini darhol angladi hamda itoat qilgan holda darrov javob qildi: "Otajon! Siz nimaga buyurilgan bo'lsangiz, o'shani qiling! Xudo xohlasa, meni sabr qilguvchilardan deb bilajaksiz". Shundan so'ng Ismoil alayhissalom otasiga farzand dog'iga uchrashdek g'am-alamni yengillatish va unga oson yo'lni ko'rsatish maqsadida: "Otajon! Men tipirchilab ketmasligim uchun oyoq-qo'llarimni mahkam bog'lang, mendan oqqan qonlar kiyimimni iflos qilmasligi va ularni onam ko'rib faryod qilmasligi uchun ularni yechib tashlang", - degan so'zlarni aytdi. Shunda Ibrohim halilulloh o'g'liga "Seni Allohning panohiga topshirdim!",- deya pichoqni o'g'lining bo'yniga tortadi. Ammo pichoqning o'tkir tig'i unga ta'sir qilmadi. (Aslida, Alloh otaga farandini qaytib bergan edi) Shunda Ibrohim halilulloh Allohga iltijo qilib yo'l ko'rsatishini so'radi. Ushbu sinovdan ota va farzand itoat etib, sabr bilan o'tganligi sabab, Alloh Ismoil alayhissalom o'rniga katta bir qurbonlik qabul bo'lishini buyuradi. Shu voqeadan beri musulmonlar Allohga minnatdorchilik izhor qilish maqsadida har yili qurbonlik so'yishni odat tusiga aylantirib olganlar. Bundan tashqari, oilada chaqaloq dunyoga kelsa ham ona va bolaning sog'ligi uchun Allohga shukronalik ramzi sifatida qo'y so'yib, aqiyqa marosimini o'tkazadilar.

Umuman olganda, QO'Y - go'sht, jun, sut olish uchun boqiladigan juft tuyoqli sutemizuvchi uy hayvoni. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatadigan bu nom qoy, qon, qoj shakllarida talaffuz qilingan bo'lib, uning qoyun, qoyin shakllari ham keltirilgan. Oxirgi ikki so'zdagi -n qo'shimchasi kichiraytirish-erkalash ma'nosini ifodalashi mumkin. Mahmud Koshg'ariy bu so'zning qon shakli y undoshining n undoshi bilan almashinuvi natijasida hosil bo'lganini ta'kidlaydi. Bu so'zning qoj, qoy, shakllari ma'noda farqlanib, qoy shakli "sovliq" ma'nosini qoj shakli "qo'chqor" ma'nosini anglatadi boshlagan. (Shavkat Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" 1 - jild.)

Quyida xuddi shunday zoonimlar haqida fikr-mulohazalarimizni keltiramiz.

QO'ZI - qo'yning bir yoshgacha bo'lgan bolasi: Yetim qo'zi boqqanning og'zi-burni moy bo'lar (xalq maqoli). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot qozi tarzida talaffuz qilingan; keyinchalik o'zbek tilida i unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: qozi> qozi.

ECHKI- quvur shoxli, juft tuyoqli, kavsh qaytaruvchi va sutemizuvchi hayvon hisoblanadi. Tuyani shamol uchirsa echkini osmonda ko'r (xalq maqoli). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu so'z asli echko' tarzda talaffuz qilingan, keyinchalik bu so'z oxirida o' unlisi i unlisiga almashgan.

Xalqimiz orasida ayyor, mug'ombir, o'z ishiga puxta insonlarni ilon deyishadi. Bundan tashqari ko'p hollarda ilon so'zini ayollarga nisbatan ko'proq ishlatilishini ham ko'rish mumkin. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida quyidagicha tasvir uchraydi: Robiya qo'shnisi Xolposh xolaning uyiga chiqqanida, Xolposh xola "Zinger" mashinasida chok bosib g'alati ashula aytayapdi.

Oq ilon, oppoq ilon, oydinga yotganing qani

Men yomondan ayrilib, yaxshiini topganing qani ?

Buni eshitgan Robiya hayron bo'lib, ilonniyam ashula qilib aytadimi odam? . Inson bolasi ilonga aylanib qolishi hech gap emas ekan. Nahotki, shunday ko'hlik kelinoyim Ra'no ilon bo'lsa? Oppoq ko'ylagining etagini loy qilib Shomurod toshma iltijo qilgan. Bugun shu ko'ylakni kiyib olib, Umar Zakunchi bilan..... Farishtaning ilonga aylanishi shunchalik osom ekan - da ? - degan o'ylarni hayolidan o'tkazgan edi.

ILON - uzun dumaloq tanali, terisi yordamida sudralib harakatlanadigan, ko'zlarida qovog'i yo'q jonivor. Ilonning yog'ini yalagan (xalq maqoli). Bu ot anglatgan yil fe'lidan - ( a ) n qo'shimchasi bilan yasalgan. O'zbek tilida so'z boshlanishidagi y undoshining almashgan, i unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: yil+ an = yilan > ilan> ilon.

Xalq tilida ilon bilan bog'liq juda ko'p o'xshatishlar, iboralar va maqollar mavjud. Ilon xushyorlik, boylik, sovuqqonlik ramzi sifatida ham qaraladi.

Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" dostonida lashkarboshiga qo'llangan tashbehlar silsilasida, lashkarboshining mardonavorligi bo'riga, jang taktikasidagi mohirligi, hiyla va tadbirkorligi tulkiga, shiddati ayiqqa o'xshatiladi.

BO'RI- itsimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon. Bo'linganni bo'ri yer (xalq maqoli). Bu ot qadimgi turkiy tilda "kulrang", "ko'kimtir" ma'nosini anglatgan bor/boz sifatining bo'r shaklidan -i qo'shimchasi bilan yasalgan. O'zbek tilida o' unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan: bo'r+i = bo'ri > bori. Bu hayvonga nom rangiga ko'ra berilgan. Bu so'z turkiy tilga eroniy tildan o'zlashgan bo'lish mumkin.

Qadim-qadimda turkiy xalqlarning ramziy belgisi sifatida bo'ri etnonimi alohida ahamiyat kasb etadi. Turk so'zining kelib chiqishi ham ayna shu hayvon nomi bilan bog'liq. Fors-tojik tilidan tarjima qilinganda "gurk" so'zi bo'ri ma'nosini anglatadi. Gurk keyinchalik turk bo'lib tilga o'zlashgan bo'lishi mumkin. Ayrim totemistik qarashlarga ko'ra bo'rini jasorat, qo'rqqmaslik, ruhiy kuch beruvchi ilohiy hayvon sifatida talqin qilinsa, xalq ertaklarida laqmalik, go'llik timsolida ham tasvirlash uchraydi. "Laqma bo'ri", "Bo'ri bilan tulki" kabi ertaklar shular jumlasidandir. Qolaversa, ayrim odamlar qo'rqqqlikni yengish uchun bo'ri tishi va yungini bo'yinlariga tumor sifatida osib, terisini uylariga ilib qo'yishadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, xalqimizda bo'ri hayvonining o'ziga xos o'rni mavjud.

AYIQ- paxmoq yungli, yirik, beso'naqay, sutemizuvchi hayvon. Ayirilganni ayiq yer... (xalq maqoli) Bu ot qadimgi turkiy tildagi "beso'naqay" ma'nosini anglatgan ayiq sifatining eshi bo'lgan ayi- fe'lidan - g' qo'shimchasi bilan yasalgan. O'zbek tilida g' undoshi q undoshiga, a unlisi o unlisiga almashgan, i unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: ayi+ g' = ayi> ayiq.

TULKI- itlar oilasiga mansub, tumshug'i uzun, dumi mayin uzun junli yirtqich sutemizuvchi hayvon. Tulki tumshug'idan ilinar ( Maqol) . Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatadi bu ot to'rt xil talaffuz qilingan: tilki, tulko', to'лки, to'lko'. O'zbek tiliga to'лки shaklidagi o' unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolib yetib kelgan. To'rt shaklning ikkitasida unlilar uyg'unligi mavjud: tilki, to'lko'. Ikkitasida bunday

mavjudlik yo‘q to‘lki, tilko‘. Demak , tovush jihatdan bu so‘z ikkiga ajrallyapti: til || to‘l qismiga va -ki || -ki qismiga. Bu so‘zning ikkinchi qismini ot (sifat) yasovchi qo‘shimcha deb aytilish mumkin; unda til-||to‘l qismi fe‘l bo‘lib chiqadi, lekin bu so‘zning ma‘nosini aniqlab bo‘lmadi. A.M.Shcherba o‘z asarida V.Bangning bu so‘z tarkibida metateza voqe bo‘lgani , to‘lki so‘zi asli to‘k ( soch,qil ) otidan -li qo‘shimchasi bilan yasalgani haqidagi fikrni keltirgan : to‘k+ li= to‘kli> to‘lki.

O‘ynab- kular jonzotlar,

Quvonch kekxa - yoshida .

Toshbaqa ulkan filni

Ko‘tarildi toshida.

Hamma qoldi hayratda .

Tulki -mohir fokuschi

Chaqqon harakat qilar

Kenguru zo‘r bokschi.

Muxlislar olqishladi

Kurashga to‘ldi maydon.

To‘qayning polvonlarin ,

Yengdi Ayiq pahlavon.

Yuqorida keltirilgan she’rda biz tulkinining hiylagar, aldoqchi ekanligini, ayiqni esa pahlavonlik tasvirlarini ko‘rishimiz mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, har bir narsani o‘zining kelib chiqish tarixi, vaqti, o‘rni bo‘ladi. Insonlarni hayvondan farqi ongli jonzot ekanligidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

- 1.Shavkat Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (Turkiy so‘zlar). 1- jild. – Toshkent: Universitet, 2000.
- 2.Said Ahmad. Qorako‘z majnun. / hikoya. – Toshkent, 2017.
3. O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. / roman. – Toshkent: Meriyus, 2015.
4. Quron qissalari. – Toshkent: “CredoPrint Group” nashriyoti - matbaa ijodiy uyi, 2023.